YANGI O'ZBEKISTON TARAQQIYOT STRATEGIYASIDA TA'LIM ISLOHOTLARI: ALISHER NAVOIY MEROSI BILAN UYG'UNLIK

Rasulova Shalola
Qo'qon Davlat Universiteti
O'zbek tili va adabiyoti fakulteti 1-bosqich magistranti

Bugungi kunda yurtimizda olib borilayotgan barcha o‘zgarishlar inson manfaati uchun xizmat qiladi. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi asosida qilinayotgan ishlar har bir sohani qamrab oldi. Ayniqsa, ta'limga bo‘lgan e'tibor o‘zgacha tus olmoqda. Dunyo davlatlari ichida o‘z o‘rniga ega bo‘lmoq oson emas. Buni faqatgina ilm orqali amalga oshirish mumkin. Chunki ilm hamisha insonga to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatadi. Uni jaholat botqog‘idan tafakkur bosqichlariga olib chiqadi. Zero bobokalonimiz Mir Alisher Navoiy hazratlari aytganlaridek: “Kamol et kasbkim olam uyudin sanga farz o‘lmag‘ay g‘am nok chiqmoq, Jahondin notamom o‘tmak biaynih erur hammomdin nopok chiqmoq”. Darhaqiqat, dunyoga kelib ilm- ma'rifatsiz yashab o‘tish go‘yoki, poklangani kirib, nopok holicha qaytib chiqishdir. Xalqimiz qadimdan ilmga oshno, kitobsevar bo‘lganligini buyuk insonlarni tarbiyalab, barcha insoniyatga ibrat qilganidan bilishimiz mumkin. Birgina Navoiy hazratlarining adolat, ma'rifat, bag‘rikenglik, insonparvarlik kabi axloqiy tamoyillar asosida yaratilgan ilmiy merosi butun dunyoga ma'naviy o‘rnak bo‘la oladi. Shuningdek, Adolatli jamiyat qurishda tamal toshi bo‘lib xizmat qiladi. Bugungi Strategiyaning asosidagi yuksak g‘oyalar va maqsadlar ham aynan milliy qadriyatlarimizga asoslangan holda ta'lim va tarbiyani uyg‘unlashtirib, yangi bosqichga olib chiqishga qaratilgan.

Prezidentimizning 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan “Taraqqiyot strategiyasi” va uning davomi bo‘lgan “O‘zbekiston – 2030” strategiyasida ham ta'lim tizimini bosqichma - bosqich yangi tizimga olib chiqish ko‘zda tutilgan. Bu islohotlar tizimning barcha bosqichlarini qamrab oldi. Maktabgacha ta'lim, umumiy o‘rta ta'lim va oliy ta'lim tizimlarida bir qator o‘zgarishlar joriy etildi. Ya'ni har bir o‘sib kelayotgan yosh avlodga bolalikdan boshlab sifatli ta'lim olishlari uchun kerakli barcha sharoitlar yaratilmoqda. Shuningdek, ta'lim berish sifati ham o‘zgardi. Maktablarda va oliy ta'limda dars jarayonlari zamonaviy texnologiyalar asosida olib borilmoqda. Bu harakatlar zamirida kelajak avlodni jahon minbarlarida o‘z o‘rniga ega bo‘lib, buyuk insonlarning izdoshlari ekanligini isbotlash maqsad qilingan. Mustaqillik sharofati bilan ajdodlarimizning asarlari va ularning hayot yo‘lini o‘rganish yo‘lga qo‘yilgan bo‘lsa, bugungi kunda ularning asarlari fan sifatida o‘qitilmoqda. Xususan, Alisher Navoiy ijodini o‘rganishga alohida e'tibor qaratildi. Chunki bugungi islohotlar bilan Navoiy asarlari orasida g‘oyaviy, ma'naviy uyg‘unlik mujassamdir. Navoiy asarlarida komil inson g‘oyasi asosiy o‘rinni egallaydi. U insonni yaxshi xulqlarni kamoliga yetkazishga chaqiradi. Bugungi jamiyatimizda ham ma'naviy yetuk, mas'uliyatli, o‘z fikriga ega yoshlarni tarbiyalash asosiy maqsaddir. Shuningdek, Navoiy insoniyatni barcha borliqdan afzal ko‘rib, uni yaratiqlarning gultoji deb biladi. Bugungi islohotlar ham inson qadri uchun uning manfaati uchun qaratilgan. Shu o‘rinda yurtboshimizning: “Bu yurtda inson aziz” degan so‘zlari yodga keladi. Yana bir uyg‘unlikning namunasi sifatida Ustozga bo‘lgan ehtiromni ham aytib o‘tish zarur. Mutafakkirning ijodida Ustozlarning maqomi yuksakdir. Buning isbotini quyidagi baytlarda ham ko‘rishimiz mumkin: “Haq yo‘lida kim sanga bir harf o‘qutmush ranj ila, aylamak bo‘lmas ado oning haqin yuz ganj ila”. She'riyat Sultoni bu misralar orqali Ustozning maqomi qanchalar ulug‘ ekanligini ta'kidlaydi. Ularning mehnati bebaho ekanligini e'tirof etadi. Buning yurtimizdagi talqinini hozirgi kunda O‘qituvchi – murabbiylarga qaratilayotgan e'tibor sifatida ko‘rishimiz mumkin.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

Ularning moddiy va ma'naviy tomondan qo'llab - quvvatlanayotgani xalqimizning qadimdan Ustozlarga bo'lgan ehtiromini ifoda etadi.

Xulosa qilib aytganda, islohotlar zamirida ma'naviy boy meroslarimiz asoslari yotadi. Ularda aks etgan axloqiy sifatlar, insoniy fazilatlar ta'lim va tarbiyaning negizini tashkil etadi. Chunki bizning sharqona qarashlarimizda bu ikkisini bir-biridan ajratib bo'lmaydi. Hozirgi taraqqiyot bosqichlarida ularni dastak qilib, yuksak marralarga chiqishimiz mumkin. Strategiyaning bosh maqsadi ham o'z milliy meroslarimizni saqlagan holda ta'lim tizimini yangi bosqichga olib chiqishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. SH.M.Mirziyoyev "Yangi O'zbekiston Taraqqiyot stretegiyasi"
2. "Yangi O'zbekiston --2030"
3. Alisher Navoiy "Hayrat Ul-Abror" dostoni
4. Alisher Navoiy "Badoye Ul-Bidoya" devoni

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.